

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53402-3.20**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**STRATEGIK MENEJMENT  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340200 - "Menejment"  
bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. To'laganova Sh. G.,  
dots. Sobirjonova D. K.

**Taqrizchilar:** prof. Zaynutdinov Sh.,  
dots. Ibragimov P.

Mazkur o'quv dasturi iqtisodiy yo'nalishlardagi Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Iqtisodiyotni yaxshilash uchun ishlab chiqarish korxonalarida ishlaydigan mutaxassislar menejment strategiyasi masalalariga oqilona yondasha olishlari kerak.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha faoliyat turlarida chiqqan doiralarida strategik menejmentga katta ahamiyat berishdan kelib chiqqan holda ushbu o'quv dasturida menejment strategiyasiga oid nazariy masalalar ko'rib chiqilgan.

Mazkur o'quv dasturidagi ma'ruza matnlari talabalarga menejment strategiyasi bilan bog'liq masalalarni echish uchun zarur nazariy yo'nalishlarini o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Данная учебная программа предназначена для студентов экономических вузов.

Специалисты работающие на производстве и предприятиях в экономической сфере должны хорошо ориентироваться в вопросах стратегического менеджмента.

В настоящее время в условиях рыночной экономики стратегическому менеджменту уделяется большое значение во всех сферах деятельности. В темах данного курса рассмотрены теоретические вопросы, касающиеся стратегического менеджмента.

Данный курс лекции, предусмотренный программой поможет студентам освоить основные теоретические аспекты необходимые для решения проблем связанных с стратегическим менеджментом.

The experts working on manufacture and enterprises in economic sphere should be well guided in questions of management.

Now in conditions of market economy the large value in all spheres of activity is given to management. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning management are considered.

The given rate of lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with management.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

O'zbekiston Respublikasi o'zining bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanlab olgan. Shu sababli respublikamizda bozor munosabatlari yildan-yilga, qadam-baqadam rivojlanib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun etarli shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy, huquqiy tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Natijada bozor infrastrukturasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayapti.

Bozor iqtisodiyoti davrida korxonalarining ichki va tashqi faoliyat sharoitining mutassil o'zgarib borishi, bozor munosabatlariga o'tish shart-sharoitlarini va uning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha o'rganishni taqazo etadi.

Shuning uchun olim va mutaxassislarning menejment nazariyasi va amaliyotiga, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi xizmat turlarini izlash va takomillashtirish yo'llari hamda usullariga qiziqishi tobora ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Pirovard maqsadda bozorni, tayin bir iste'molchini ko'zlash, raqiblar va raqobat usullarini puxta o'rganish, yutuq va barqarorlik garovi bo'lib hisoblanadi. Bozor talabini yaxshi bilish, korxonalarda mahsulot va xizmat turlarini ko'paytirishni rejalashtirish, yangi tovarlarni loyihalash va yaratishni, mijozlar hamda haridorlar talabiga muvofiq ravishda ish yuritish imkonini beradi.

Strategik menejment-iste'molchilarning hozir va kelajakda talablarini qondirishga qaratilgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, sotish va natijada foyda olish bilan bog'liq faoliyat turidir. Strategik menejmentda asosiy e'tibor uning maqsadli yo'nalishga egaligi hisoblanadi, ya'ni yangi tadqiqotlarni jami yo'nalishlarning yagona texnologik jarayoniga birlashuvi ham uning o'ziga xos xususiyatidir.

Har bir korxonada tashqi omillar hamma xo'jalik faoliyati tabiatini hisobga olgan holda, o'ziga mos menejment strategiyasi va dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, chunki eng asosiy maqsad tovarlar va xizmatlarni qaerda, kimga, qanday qilib sotish muammosini hal qilish bo'lsa, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlarda ham murakkab va serqirrali faoliyat hisoblanadi. Bu masalalarni kompleks tarzda echish yo'llarini strategik menejment fani o'rgatadi.

### **O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

"Strategik menejment" fanini o'qitishdan maqsad talabalarda boshqarish muammolariga qiziqish uyg'otish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyok

tug'dirishdir. Chunki hozir boshqarish asoslarini o'rganayotgan talabalar kelgusida boshqarish tizimining xodimlari, kichik va o'rta, katta jamoalarning rahbarlari, korxonalar hamda firmalarni iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik faoliyatining turli sohalarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiquvchilar bo'lib etishadilar. Boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish ham ularning zimmasiga tushadi.

Strategik menejment jamiyatning iqtisodiy negizi bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqish lozim, bunda boshqarishning ikki tomoni hisobga olinadi: tashkiliy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy.

Strategik menejmentning asosi uning ob'ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga tayangan asl ilmiyligidir. Bu qonunlarni ma'lum sharoitlarda o'qib va o'rganib, xo'jalik rahbarlari Respublika xalq xo'jaligini boshqarishning strategiyasi va taktikasini aniqlaydi.

Strategik menejmentning davlat miqyosidagi eng pirovard maqsadi bo'lib, kuchli demokratik xuquqiy davlat va barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyat qurishdir.

Iqtisodiy islohotlarni olg'a surish, iqtisodni umumjahon xo'jaligiga kirib borishi uchun, boshqaruv munosabatlari mexanizmini mukammal bilish kerak.

"Strategik menejment" fani boshqaruv munosabatlari kontseptsiyasi, boshqarish asosida qarorlar qabul qilish va uni nazorat qilishni o'rgatadi.

Talabalarga tavsiya qilingan bu fanning maqsadi menejment tushunchasining asosiy g'oyalarini etkazib berish va "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavr kadrlarga iqtisodiy munosabatlarda boshqaruv sir – asrorlarini o'rgatish, uni tahlil qilish va kelib chiqqan muammolarni to'g'ri echa bilish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

"Strategik menejment" fani boshqarish to'g'risidagi bilimlar majmuasidir. U "Ijtimoiy iqtisodiy", "Huquqiy", "Axborot texnologiyalari", "Oliy matematika", "Marketing" va boshqa fanlar bilan aloqadordir.

"Strategik menejment" dastavval "Iqtisodiy nazariya", "Moliya menejmenti", "Bank menejmenti", "Boshqaruv va moliya hisobi" kabi fanlar bilan bog'liqdir. Shuningdek "Boshqarish" fani bilan "Huquq" fanlari o'rtasidagi muayyan munosabatlar mavjud.

#### **Mazkur fanni o'rgatish vazifalari**

- talabaga faoliyatni tashkil qilish va boshqarish asoslarini o'rgatishdir;
- qarorlarni to'g'ri qabul qilishga doir nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- menejerlarni tanlash va tayyorlashda zarur bo'lgan umumiy bilimlar berish;

- xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi menejmentning ilmiy nazariyalari asosida O'zbekistondagi tashqi va ichki bozor faoliyatini boshqarish tizimi xususiyatlarini o'rgatish;
- xalqaro bozor iqtisodiyoti munosabatlarida boshqaruvning tashkiliy asoslarini o'rgatish;
- menejment uslublari asosida boshqaruv faoliyatini tartibga solish.

### **Fanni o'qitish bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

- talabalar fanni o'rganish jarayoniga har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan miqdordagi reyting ballarini to'plashlari, fanning "tayanch" iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollari asosida o'z bilimlarini sinab borishlari lozim;
- mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlash lozim;
- fanni o'zlashtirish natijasida "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasida bo'lg'usi bakalavr boshqaruv faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullarini mukammal egallashlari lozim.

### **Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar**

Seminar mashg'ulot mavzulari namunaviy dastur asosida belgilanib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan birga alohida uslubiy qo'llanma shaklida ko'paytiriladi. Seminar rejasidagi savollar dastur doirasida tuzilib, ma'ruzada bayon qilinadigan masalalar bilan mazmunan bir xil bo'lsada, shaklan ularni takrorlamaydi.

### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi**

Oliy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 114, shu jumladan: 38 - ma'ruza, 38 - amaliy mashg'ulotlar, 38 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

### **Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari**

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib, aniqlanadigan reyting ballari (76 ball) nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- joriy baholashga seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (26,6 ball);

- oraliq baholashga ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (26,6 ball);
- yakuniy baholashga o'quv soatlar yuklamasining 30 foizi (22,8 ball).

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darslaridagi faolligi, ilmiy referat tayyorlaganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k) bajarganligi uchun qo'yib boriladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi, hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib ularga tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch so'z va iboralari bo'yicha bajargan yozma ishi uchun qo'yiladi.

### **Kompyuter, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash**

"Strategik menejment" kursini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- ma'ruza matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, talabalarga tarqatish. Bu o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi;
- test savollarini tuzish;
- "tayanch" iboralar ishlab chiqib, ularning talabalar tomonidan mukammal o'zlashtirishni ta'minlash;
- ayrim mavzular bo'yicha ma'ruzalarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqaradigan yuqori tashkilotlarning mas'ul xodimlari tomonidan o'tishini ta'minlash;
- masofaviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- yozilgan ayrim ma'ruzalarni xorijiy universitetlar professorlari tomonidan o'qitilib, teleekran orqali namoyish etishga erishish va boshqalar.

### **INTERNET tarmoqlarida mavjud bo'lgan fanga taalluqli saytlar ro'yxati:**

1. <http://www.cer.uz>
2. <http://www.referat.ru>
3. <http://www.plekhanov.ru>
4. <http://www.litera.ru>

## **Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

"Strategik menejment" fani kunduzgi bo'lim menejment yo'nalishi 4-kurs o'quv yili davomida o'qitilib, oraliq, joriy baholash orqali boshqarilib o'quv jarayonini oxirida yakuniy baholash bilan tugallanadi.

Ular ma'ruza darslari, amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Talabalarning olgan bilim va ko'nikmalari keyingi yuqori kurslarda o'tiladigan boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun ham asos bo'ldi va bu bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Fanni o'rganishda quyidagilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiy munosabatlar, jumladan bozor faoliyatiga oid fikrlar, ko'rsatmalarni tegishli mavzularda ishlatish;
- Talabalarni bozor faoliyatiga taalluqli yangi qo'llanmalar, bilan tanishtirib berish;
- Har bir mavzu bo'yicha jadvallar va chizmalar tayyorlab ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish.

## **2. FAN DASTURI**

### **Strategik menejment kontseptsiyasi**

Krizis sharoitida firmani isloh qilishdan maqsadi, tamoyillari va yo'nalishi. Strategik menejmentning funktsiya va tamoyillari. Ob'ektning samaradorligini va raqobatbardoshligini ko'taruvchi asosiy vosita sifatida. Strategik menejmentning tarkibi va tizimi. Tovar davrini rivojlanishining boshqaruvi.

### **Strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uslubiy asoslari**

Strategik boshqaruv qarorlari. Sifat va samaradorligiga qo'yiladigan talablar. Strategik qarorlarni sifat va samaradorligini oshirishda iqtisodiy va tashkiliy qonunlarning roli. Strategik qarorlarni ishlab chiqishda ilmiy yondashuv. Strategik qarorlarni tahliliy asoslari. Strategik qarorlarni bashorat etish asoslari. Strategik qarorlarni iqtisodiy asoslash.

### **Firma va tovarning raqobatbardoshlik sifati tahlili**

Raqobat va raqobatbardoshlik jamiyat rivojlanishini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida. Maykl Porterning raqobat ustunligi nazariyasi. Eksklyuziv qiymat asosida firmaning raqobatbardoshlik ustunligi ob'ektlarini shakllanishi. Turli ob'ektlarning raqobatbardoshlik ustunligi omillari. Ob'ektlarning raqobat ustunligi integral baholash uslubi. Raqobat ustunligi tahlil qilishga yordamlashuvchi uslublar (SWOT, GAP, LOTS, PIMS, "Profil", Mc Kinscy).

### **Turli ob'ektlarning raqobatbardoshligini baholash uslubiy asoslari**

J.J.Lamben uslubi asosida firmaning raqobatbardoshligi tahlili. Raqobatbardoshlik qobiliyatini baholash uchun talablar va asosiy ma'lumotlar. Personalning raqobatbardoshligini baholovchi uslub. Bozor omillari va samaradorlik asosida tovarning raqobatbardoshligini baholovchi uslub. 1111-5555 tizimi bo'yicha tovarning raqobatbardoshligini baholash uslubi. Firmaning raqobatbardoshligini tahlili va uni baholash uslubi. Firmaning barqarorlik faoliyatini baholanishi uning kelajakdagi raqobatbardoshlik asosi.

### **Firma strategiyasining shakllanishi**

Firma strategiyasini shakllanishida strategik menejment asosiy vosita sifatida. Firma shakllanishida turli yondashuvlar. Firma strategiyasining tarkibi va mazmuni. A.A.Tomson va A. Dj qarashi asosida firma sharoitiga qarab strategiya turlari. Firma xalqaro faoliyati strategiyasi. Firma strategiyasini ishlab chiqish texnologiyasi. Firma strategiyasini ishlab chiqishdagi resurs, axborot huquqiy va uslubiy ta'minlanganligi. Firma strategiyasining uyali tashkil etish, ishlab chiqish va bajarilish uslublari.

### **Sifatni oshirish strategiyasi**

Tovar sifat ko'rsatkichlari tizimi. Bozorda tovar servis xizmati ko'rsatkichlari sifat tizimi. Tovar sifatini oshirishni bashorat etish strategiyasi. Tovar sifatini umumboshqaruv kontseptsiyasi (TQM).

### **Narxni shakllantirish va resurs tejash strategiyasi**

Narxni shakllantirish strategiyasi. Tovarning resurs bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari. Firma faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari. Resursni tejash omillari. Resurs tejamkorlik strategiyasini tanlash.

### **Firmaning tashkiliy-texnik va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi**

Ishlab chiqarish tashkiliy-texnik darajasini tahlili va bashorat etish. Firmaning texnik va ijtimoiy siyosatini shakllanish asoslari. Firmaning tashkiliy va ishlab chiqarish tizimini rivojlanishi. Firmaning yangiliklar va innovatsiya portfelini shakllanishi.

## **Xodimlar boshqaruvi strategiyasining takomillashuvi**

Xodimlar boshqaruvi tamoyillari. Shaxsning psixologik portretining tahlili. Xodimlarni boshqarish uslublari. Mehnatni tashkil qilishni takomillashuviga talablarning shakllanishi.

### **Firma strategiyasini bajarishni tashkil etish**

Jarayonlarni ratsional tashkil etish tamoyillari. Strategiyani bajarilish hisoboti va nazorati. Strategik natijalarga erishish motivatsiyasi. Firma strategiyasini sharoitga qarab yo'naltirish.

## **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZUSI**

### **Strategik menejment kontsepsiyasi**

Krizis sharoitida firmaning isloh qilishdan maqsadi, tamoyillari va yo'nalishi (tashkilot, korxonalar). Strategik menejmentning funktsiya va tamoyillari ob'ektning samaradorligini va raqobatbardoshligini ko'taruvchi asosiy vosita sifatida. Strategik menejmentning tarkibi va tizimi. Tovarining hayot davri. Tovarining qayta ishlab chiqarish davri. Tovarining foyda keltirish davri.

### **Strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uslubiy asoslari**

Boshqaruv qarorlarini tasniflanishi. Boshqaruv qarorlarining samaradorlik va sifatini ta'minlovchi tartiblari va parametrlari. Boshqaruv qarorlarini alternativ variantini taqqoslash sharoitini yaratish. Qaror qabul qilishda noaniqlik va tavakkalchilik omillarini inobatga olish. Strategik qarorlarni sifat va samaradorligini oshirishda iqtisodiy va tashkiliy qonunlarning roli. Strategik qarorlarni ishlab chiqishda ilmiy yondashuv. Strategik qarorlarni tahlil qilish asoslari. Strategik qarorlarni bashorat etish asoslari. Strategik qarorlarni iqtisodiy asoslash.

### **Firma va tovarlarning raqobatbardoshlik sifatini tahlili**

Firmaning raqobatchilikdagi afzalliklarini aniqlash. Yangi raqobatchilarning kirib kelish havfi. O'rinbosar tovarlar havfi. Mijozlar tomonidan tazyiq o'tkazish. Ta'minotchilar tomonidan tazyiq o'tkazish. Toza yoki mukammal raqobat. Oligopol, monopolistik yoki mukammallashmagan raqobat. Monopoliya. Tajriba qonunini aniqlash. Tajriba qonunini strategik izlanishi. Tajriba qonunini chegaralari. Raqobatchilik afzalligining matritsasi.

Raqobat va raqobatbardoshlik jamiyat rivojlanishini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida. Maykl Porterning raqobat ustunligi nazariyasi. Eksklyuziv qiymat asosida firmaning raqobatbardoshlik ustunligi ob'ektlarini shakllanishi. Turli ob'ektlarning

raqobatbardoshlik ustunligi omillari. Ob'ektlarning raqobat ustunligi integral baholash uslubi. Raqobat ustunligi tahlil qilishga yordamlashuvchi uslublar (SWOT, GAP, LOTS, PIMS, "Profil", Mc Kinscy).

### **Turli ob'ektlarning raqobatbardoshligini baholash uslubiy asoslari**

"Bozor ulushi-o'sish" matritsasi. "Jalb qiluvchanlik-raqobatbardoshlik" matritsasi. Faoliyat yo'nalishi bo'yicha portfel tahlilining foydali darajasi. Harajatlarda iqtisod qilish hisobiga liderlik strategiyasi. Defferentsiya strategiyasi. Mutaxassislik strategiyasi. Strategiya asosi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik. Intensiv o'sish. Integratsion strategiya. Diversifikatsiya orqali o'sish strategiyasi. Liderlik strategiyasi. "Chaqiriq tashlovchi" strategiya. "Lider ketidan yurish" strategiyasi. Mutaxassis strategiyasi. Xalqaro rivojlanishning maqsadi va shakllari.

J.J.Lamben uslubi asosida firmaning raqobatbardoshligi tahlili. Raqobatbardoshlik qobiliyatini baholash uchun talablar va asosiy ma'lumotlar. Personalning raqobatbardoshligini baholovchi uslub. Bozor omillari va samaradorlik asosida tovarning raqobatbardoshligini baholovchi uslub. 1111-5555 tizimi bo'yicha tovarning raqobatbardoshligini baholash uslubi. Firmaning raqobatbardoshligini tahlili va uni baholash uslubi. Firmaning barqarorlik faoliyatini baholanishi uning kelajakdagi raqobatbardoshlik asosi.

### **Firma strategiyasini shakllanishi**

Marketing strategiyasining kontseptsiya va funktsiyasi. Bozor segmentatsiya strategiyasi. Firma strategiyasi shakllantirishga yondashuv.

Firma strategiyasini shakllanishida strategik marketing asosiy vosita sifatida. Firma shakllanishida turli yondashuvlar. Firma strategiyasining tarkibi va mazmuni. A.A.Tomson va A. Dj qarashi asosida firma sharoitiga qarab strategiya turlari. Firma xalqaro faoliyati strategiyasi. Firma strategiyasini ishlab chiqish texnologiyasi. Firma strategiyasini ishlab chiqishdagi resurs, axborot huquqiy va uslubiy ta'minlanganligi. Firma strategiyasining uyali tashkil etish, ishlab chiqish va bajarilish uslublari.

### **Sifatini oshirish strategiyasi**

Sotuv funktsiyasi. Tarqatish yo'nalishlari. Dallollar turlari. Tarqatish kanallari konfiguratsiyasi. Vertikal marketing tizimlari. Iste'mol tovarlari turlari. Intensiv sotuv. Sotuv tanlovi. Kiritish strategiyasi. O'ziga tortish strategiyasi. Savdo ustamalari. Sotuv xarajatlarini taqqoslash. Sotuv sektori muhitini o'zgartirish. Distreb'yuterlar differentsiatsiya strategiyasi. Do'konlarsiz marketingni asoslash. Interaktiv marketing tizimini kiritish. Bilvosita eksport. Bevosita eksport. Tashqi bozorda ishlab chiqarish.

Tovar sifat ko'rsatkichlari tizimi. Bozorda tovar servis xizmati ko'rsatkichlari sifat tizimi. Tovar sifatini oshirishni bashorat etish strategiyasi. Tovar sifatini umumboshqaruv kontseptsiyasi (TQM).

### **Narx shakllantirish va resurs tejash strategiyasi**

Narx shakllantirish strategiyasi turlari. Narx belgilash strategiyasi. Bozorga mustahkam kirish strategiyasi. Tovarining resurs ta'minlanganlik ko'rsatkichlari turlari. Firma faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari. Resurs tejamkorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Resurs tejamkorlik strategiyasini tanlash.

### **Firmaning tashkiliy texnik va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi**

"Innovatsiya" va Ilmiy texnik rivojlanish tushunchalarining bir-biridan farqi. I.T.R.ning asosiy yo'nalishlari. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasi. TTDning shajarasi. Ishlab chiqarishning tashkiliy darajaga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarishning texnik darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etish tamoyillari. Firmaning texnik siyosati. Ijtimoiy siyosat. Firmaning tashkiliy-texnik rivojlanishning strategik va taktik masalalari.

### **Xodimlarni boshqaruv strategiyasini takomillashuvi**

Xodimlar boshqaruvi tamoyillari asoslari. Shaxsning psixologik portretining tahlili. Xulq-atvor psixologiyasi. Temperament. Temperament turlari. Xarakter. Qobiliyat. Yo'naltiruvchanlik. Intellektual. Hissiyotga berilish. Muomala madaniyati. O'z-o'zini baholash. Xodimlarni boshqarish metodlari. Mehnatni tashkil qilishni takomillashuviga qo'yiladigan talablarni shakllanishi.

### **Firma strategiyasini bajarilishini tashkil etish**

Strategik menejmentning umumiy tizimi rejasi. Strategik reja ahamiyati. Strategik missiya bayoni. Muhitni jalb etuvchanlik tashqi omilining tahlili. Raqobatbardoshlik tahlili. Maqsadni shakllantirish. Strategik yo'l tanlash. Marketing byudjeti. Strategik rejani mukammalligini tekshirish. Zaiflik tahlili. Favquloddagi muammolarni rejalashtirish.

Jarayonlarni ratsional tashkil etish tamoyillari. Strategiyani bajarilish hisoboti va nazorati. Strategik natijalarga erishish motivatsiyasi. Firma strategiyasini sharoitga qarab yo'naltirish.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOIYISH MATERIALLARI RO'YXATI**

**"Strategik menejment" fani bo'yicha ko'rgazmali amaliy o'quv materiallari**

- Strategik menejment kontsepsiyasi.
- Firma va tovarning raqobatbardoshlik tahlili.
- Firmaning tashkiliy-texnik va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi.
- Firma strategiyasini bajarishni tashkil etish.
- Narxni shakllantirish va resurs tejash strategiyasi.

#### **Slaydlar ro'yxati**

- Strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uslubiy asoslari.
- Turli ob'ektlarning raqobatbardoshligini baholash uslubiy asoslari.
- Firma strategiyasini shakllanishi.
- Sifatni oshirish strategiyasi.
- Xodimlar boshqaruvi srategiyasining takomillashuvi.

#### **Axborot manbalari ro'yxati**

- Yillik statistik ma'lumotlar.
- Korxonalar (firma) hisobotlari.
- Tadbirkorlar uyushmasi axborotlari.
- Birja axborotlari.
- Bank axborotlari.
- Televidenie, radio yangiliklari.
- Aktsiya kurslari jadvallari.
- Voqealar sharhi.

### **5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI**

**"Strategik menejment" fanidan nazorat qilish turlari quyidagicha**

1. Fan uchun belgilangan maksimal ball - 76;
2. Fan uchun saralash bali - 42,6. Shu jumladan:
  - joriy baholash - 26,6 ball;
  - oraliq baholash - 26,6 ball;
  - yakuniy baholash - 22,8 ball.

### **6. ADABIYOTLAR**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.

2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: O'zbekiston 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - T.: O'zbekiston 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. - T.: O'zbekiston 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. - T.: O'zbekiston 1996.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi T. 5. -T.: O'zbekiston 1996.
8. Karimov I.A. Zamonaviy Kadrlar-taraqqiyotimizning muhim omilidir. T. 6. - T.: O'zbekiston 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston 1999.
10. Boumen K. Osnovi strategicheskogo menedjmenta. M.: YuNITI. 1997.
11. Fatxutdinov R.A. Strategicheskii menedjment. Uchebnik. - M.: "Delo". 2001.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Vixonskiy O.S., Naumov A.I. Menedjment: chelovek, strategiya, organizatsiya, protsess. Uchebnik. - M.: Gardarika 1996.
2. Gerchikova I.N. Menedjment. - M.: YuNITI 1995.
3. Kotler F. Marketing, menejment. Per.s ang. Sankt-P., 1999.
4. Meskon M., Albert M., Xidouri F. Osnovi menedjmenta. - M.,1995.
5. Menedjment sistem kachestv. Ucheb. pos. - M.: "Standart" 1997.
6. Upravlenie organizatsiey. Uchebnik INFRA - M., 2000.
7. Fatxutdinov R.A. Upravlencheskie resheniya. Uchebnik. - M.: INFRA-M. 2001.
8. Fatxutdinov R.A. Innolsatsionniy menejment. Ucheb. - M.: Intel-sintez. 2000.
9. Fatxutdinov R.A. Organizatsiya proizvodstva. Uchebnik. - M.: INFRA-M. 2000.
10. Fatxutdinov R.A. Konkurentosposobnost: ekonomika, strategiya, upravlenie. Uchebnik. - M.: INFRA-M. 2000.
11. Metodicheskie rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionnix proektov inform elektro. - M.: Ekonomika 1994.
12. Meskon M.X., Albert M., Xidouri F. Osnovi menedjmenta. Per. s ang. - M.: Delo 1992.
13. Porter Mejdunarodnaya M. konkurentsia. Per. s ang. pod red. Shchetinina V.D. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya. 1993.
14. Portfel konkurentsii i upravlenie finansami. Rubin Yu.B. - M.: Somintek. 1996.

15. Tompson A.A., Striklend A.Dj. Strategicheskiy menejment. Isskustvo razrabotki i realizatsii strategii. Per. s ang. pod red. P.G.Zaytsev, M.I.Sokolovoy. - M: Banki i birji, YuNITI. 1998.